



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qo'choqbo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyana MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67

e-mail: til_adabiyoti@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyoti.uz

Jurnalidan ko'chirilgan maqolalar "Til va adabiyot" ta'limi dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat maqomi nazorati mavjudligi kelmaydigan fikr-mulohazalari hisoblanishi mumkin.

Tahririyatga kelgan og'ayimlar taqdir qilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Biomassazh. 2022. 25.06. da topshirildi. O'fset usulida chop etildi. Og'or bichimi 60x84/8. Sharti bosma tabaqi 8.0. shkala-gammatasi. 10, 11 kepl. »ECO TEXTILE PRODUCTIONS» MCHJ bosma-xonalarida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirbod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayruti » Adali 200 nassa. Bahosi kelishilgan nassda.

1991-yildan chiqqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti – 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq – komilik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostonant testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqolalar badiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir musharakligi	14
TAHLIL	
Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Aqulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umid Shermatova. Taqqaslashirilgan adabiyot ta'limida binar metodik usul	22
O'tkir Islomov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq – behavo ma'naviy boylik	22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi – shoirning asl dardi	24
Nodira Xoligova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi – jamiyat masalasi	28
Iroda Xoligova. Hamza Hakimzoda niyozining dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'or Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahoroy Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodiga ayollar obrazining musharakat jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'ngi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofotoy Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohgul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'qitishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining to'g'ri lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lig' qalbar kuchisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lektsiklasida o'zlashtirish so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati	69
Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalinishi	70
Dildora Yorbulova. Hamza hakimizda niyozining ashularida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi	73
Nodira Xoligova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Humoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyozining she'riyatida er va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

ISSN 1691-2689

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining

Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

day tugashini tarjimon bilmay qoladigan holatlar ham uchraydi. Tillararo muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlari; yozma tarjimada tarjimon tarjima qilingan matn muallifi bilan aloqada bo'lmaydi, ya'ni kerakli vaqtda unga murojaat qilib alohida nuqtalarni (fikrlarni) aniqlay olmaydi. Og'zaki tarjimada bir vaqtning o'zida kamida uchta ishtirokchi qatnashadi: so'zlovchi, tinglovchi va tarjimon. Bundan ko'rinib turibdiki, tarjimon tarjima ishtirokchilari bilan bevosita aloqada bo'lib, savollar berishi, muayyan nuqta yoki holatlarni aniqlashi mumkin.

Lingvistik aloqadagi tillarning nisbati. Yozma tarjimada tilning bir jihati ustida ishlaydi, lekin og'zaki tarjima bilan shug'ullanuvchi tarjimonning ishi bir vaqtning o'zida ikki tomonlama, ya'ni ikki o'lchovli (tomonlama) prinsip asosida ishlaydi. O'z navbatida og'zaki tarjima 2 kichik guruhga bo'linadi: 1. Sinxron tarjima 2. Ketma-ket tarjima. Ketma-ket tarjimoni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: 1. Ketma-ket rasmiy tarjima (bu hollarda yuqori darajadagi rasmiy uchrashuv va konferensiyalarda e'tiborga olingan holda qo'llaniladi); 2.

Ketma-ket norasmiy og'zaki tarjima (masalan, do'stona suhbatlar, norasmiy sayohatlar va boshqalar).

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, tarjimonlik kasbi azaldan katta ahamiyatga ega bo'lgan va bugungi kunda u o'sib bormoqda, chunki insoniyat azaldan muloqotga muhtoj bo'lib kelgan, turli xalqlar o'rtasidagi muloqotni tarjimasiz amalga oshirish mumkin emas. Bugun, O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat va jahon hamjamiyatining to'la huquqli a'zosi sifatida dunyoning barcha davlatlari bilan aloqalar o'rnatib, rivojlanayotgan bir paytda davlatlararo muzokaralar, odamlar o'rtasidagi muloqotni tarjimasiz ta'minlash mumkin emas.

Bugungi kunda ushbu xizmat turiga ehtiyoj ortib bormoqda. Jamiyatimiz bu ish naqadar mashaqqatli ekanini anglab yetishi, boshqa kasblar qatori tarjimonlar mehnatini ham qadrlashi uchun vaqt kerak bo'ladi. Bu kasbga nisbatan odamlarning fikri individualdir. Hech bo'lmaganda bir marta tarjima qilgan odamlar tarjimonlik kasbini, mehnatini qadrlashadi, ba'zilar esa buni til bilimiga tenglashtiradi, ya'ni inson tilini bilsa, tarjima ham qila oladi, bu katta xato. Boshqa tillarda gapira oladigan hamma ham tarjima qila olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бархударов Л.С. Процесс перевода с лингвистической точки зрения. // Конференция по вопросам теории и методики преподавания перевода. — Москва, 1964.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. Вопросы общей и частной теории перевода. — Москва, 1975.
3. Борисова Л.И. Вопросы оценки качества перевода в современном переводоведении. // Перевод научнотехнической литературы. — Москва, 1976.
4. Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. — Москва, 1975.
5. Зимняя И.А. Психологический анализ перевода как специфического вида речевой деятельности. // Теория перевода и научные основы подготовки переводчиков. — Москва, 1975, т.1.

Nafisa RAHMANOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

NIZOMIY VA NAVOIYNING OTA-O'G'IL MUNOSABATLARI HAQIDAGI QARASHLARI

Annatsiya: maqolada Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin", Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonlarida qalamga olingan solih farzand tarbiyasi, ota — o'g'il munosabatlari mavzulari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Nizomiy, Navoiy, "Xusrav va Shirin", "Farhod va Shirin", komil inson tarbiyasi, ota-o'g'il munosabatlari

Annotation: The article provides a comparative analysis of the themes of the upbringing of a righteous child, father-son relations, written in the epics of Nizami Ganjavi "Xusrav and Shirin", Alisher Navoi "Farhod and Shirin".

Keywords: Nizami, Navoi, "Xusrav and Shirin", "Farhod and Shirin", perfect human upbringing, father-son relations

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ тем воспитания праведного ребенка, отношений отца и сына, написанных в эпосах Низами Гянджеви «Хусрав и Ширин», Алишера Навои «Фарход и Ширин».

Ключевые слова: Низами, Навои, «Хусрав и Ширин», «Фарход и Ширин», совершенное человеческое воспитание, отношения отца и сына.

Nizomiy Ganjaviy o'z asarlari bilan Sharqning ijtimoiy-badiiy tafakkurida yangi sahifa ochgan buyuk shoirdir. Uning asarlari to'qqiz asrdan beri tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelmoqda. Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonida, pok muhabbat, adolatli shoh mavzu-

laridan tashqari, yosh avlod tarbiyasi, ota-o'g'il munosabatlari komil inson mavzusiga bog'lab juda chiroyli yoritib berilgan. Kisro-Hurmuz, Hurmuz — Xusrav o'rtasidagi munosabatlari o'rta asrlarda otaning farzand oldidagi, farzandning ota oldidagi burchlari qay yo'sinda ado etil-

gani haqida XXI asr o'quvchisiga aniq tasavvur bera-di. Nizomiyning "Panj ganj" asariga tatabbu' bog'lagan Alisher Navoiy ham "Xamsa"ning barcha dostonlariga bosh mavzu qilib komil insonni tarbiyalashni tanladi. O'g'il farzand tarbiyasiga otani, qiz farzand tarbiyasiga esa onani mas'ul deb bildi [6,117]. Nizomiy va Navoiy "Xamsa"sidadig o'talar timsolini qiyoslab o'rganish va tahlil qilish orqali ideal sharqona tarbiya, ideal ota, ideal farzand masalalariga ikki buyuk mutafakkirning munosabatlari bilib olish mumkin.

Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonida asosiy voqealar Kiroga qazo yetib, taxtga uning o'g'li Hurmuz o'tirgani va mamlakatni adolati bilan obod qilgani bayoni bilan boshlanadi. "Padar rasmini ul har dam tutardi, Berardi, dini ham mahkam tutardi" bayti ota-o'g'il munosabatlari ijoiy bo'lganini ko'rsatadi [4,42].

Hurmuz otasiga o'xshab adolatlil, insofli, har ishda dini mahkam ushlagan shoh bo'ldi. Nazr-niyozlar qilib Xudodan farzand so'raydi. Farzandi dunyoga kelgan kundan uning tarbiyasiga jiddiy qaraydi. Zamonasining eng kuchli muallimi, harbiy ustozlari qo'lga o'g'lini topshiradi. O'n to'rt yoshida Xusrav oq-u qorani ajratadigan solih farzand darajasiga yetadi.

Hurmuzning farzand tarbiyasiga jiddiy yondashishi, Xusravning o'n to'rt yoshigacha qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari Navoiyning Farhodini esga soladi. Har ikkala shoir ham o'g'il bola tarbiyasida dunyoviy, diniy va harbiy bilimlar yetakchi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar. Sharqona tarbiya talablari bayonida Navoiy Nizomiyga ergashadi. Xusravning qaysi chizgilari Farhod obrazida aks etganini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

<i>Xusrav</i>	<i>Farhod</i>
Yaratgandan tilab olingan farzand.	Yaratgandan tilab olingan farzand.
<i>Ki erdi gavhari daryoyi shohiy,</i> <i>Charog'i ravshani nuri ilohiy.</i>	<i>Kiyurdi ilgiga davron nigini,</i> <i>Nigin o'mida la'li otashini.</i> <i>Yuzinda ishq asrori yozilg'on,</i> <i>Ichinda dard ta'vizi qozilg'on.</i>
Taqdir uni tojdor - taxtgir qilib yaratgan edi.	Go'dakning yuzida shohlik yog'dusi ko'zga tashlanib turardi.
Shu sababli Otasi unga Xusravi Parviz deb ism qo'yadi.	Shu sababli unga "Farhod" deb ism qo'ydi: uning yuzidagi yog'dudan, ya'ni Fardan Himmat, Iqbol, Davlat ziynat topdilar.
Sut-u shakarga mayli baland edi, enagalari sutga shakar qo'shib berishardi.	Sut ichishni yoqtirmasdi, o'z ovqatini sevgidan topar edi.
Yusufday go'zal edi.	Xoqonning tungi oromgohida oy tug'ildi, oy emas, balki olamni bezovchi quyosh tug'ildi.
Ustozidan dunyoviy va diniy bilimlarni o'rgandi. Maoniy sohibi va suxanvar bo'lib yetishdi.	Arastuga ustoz maqomida bo'lgan muallimdan diniy va dunyoviy bilimlarni o'rgandi.
To'qqiz yoshida sher, ajdaho bilan jang qilishga kirishdi.	O'n yoshida dunyoda u egallamagan, o'rganib tagiga yetolmagan biron ilm qolmasdi. Jangovarlik yarog'larini o'rganishga kirishdi.
O'n yoshida o'ttiz yoshilarni lol qoldirdi.	O'n yoshida uning gavdasi, kuch-quvvati yigirma yoshilarnikiday edi.
Mohir kamonboz, kuchli nayzaboz edi.	Mohir kamonboz va qilichboz edi. Gurzi, shashpami o'ynatganda ularning zarbiga hech narsa dosh berolmasdi.
O'n to'rt yoshida "Ko'rib har neki oshkoru nihonda, Nedir yaxshi-yomon, bildi jahonda...".	O'n to'rt yoshigacha dunyoviy, diniy bilimlarni, harbiy ilmi puxta egalladi.

Nizomiy ota-o'g'il bir-birlariga nisbatan kechirimli bo'lishi kerakligini Hurmuz va Xusrav hayotiga oid ibratomuz bir voqeani keltirish orqali ta'kidlaydi. Xurmuz dono vaziri Buzurgummid bilan faxrlanar, uni jonidan ortiq yaxshi ko'rar, har bir ishni u bilan bamaslahat amalga oshirardi, chunki:

Edi ilkada asrori nihoni,

Kaliti necha ganji osmoniy. [4,45]

Hatto shahzoda Xusrav ham unga shogird tushib, dilini nurafshon qiladi; charxi davorning sir-sinoatlarini o'rganib, sohibi asror darajasiga yetishadi. Shoh Hurmuz asli turk bo'lgan vazirining hayotiga shikast yetmasligini o'ylab, "uzun qo'llarni qisqa qiladi", ya'ni turklarga ozor bermaslik, ularning ekiniga, mol-holiga zarar yetkazmaslik to'g'risida farmon chiqaradi. Tabiatida yengiltaklik bo'lgan Xusrav ovdan qaytayotganda yigittari bilan

turkari yashaydigan qishloqda tunab qoladi. Oti bo'shalib, turk dehqonining dalasini payhon qiladi, yigitlaridan biri bog'bonning bog'idan pishmagan uzumlarni o'g'irlaydi. Sozandasi ertalabgacha chang chalib, qishloq aholisining tinchini buzadi. Bundan xabar topgan adolatli shoh Hurmuz o'g'lining sevimli otini so'ydiradi, uzum o'g'irini qul qilib bog'bonga taqdim qiladi, o'g'li kimning uyiga kirib ishrat qilgan bo'lsa, taxtini o'sha uy sohibiga sovg'a qiladi, changchining timoqlarini sug'urib tashlashni buyuradi. Otasining g'azabidan qo'rqqan o'g'li "meni otamning oldiga elting" deb pirlarning huzuriga keladi. Ustiga kafan kiyib, bir qo'lga tig' olib, pirlarning ortidan ergashib otasining oldiga boradi, gunohkordek o'zini yerga otib, yig'lab kechinim so'raydi: *"Hamon ona sutlidi menga oshna, Magar sherdek xunimga bo'lma tashna [4,49]"*.

Xusrav iltijolari bilan avval davradagilarni, oxirida otasini ham yig'latadi. Chin ko'ngildan tavba-tazarru qilayotganiga otasini ishonitiradi. Nizomiy Xusrav hali yosh bo'lsa ham mushkul vaziyatdan aql bilan chiqib ketdi, ham o'z jonini, ham otasining sha'nini saqlab qoldi, deb ta'kidlaydi. Aqlli Hurmuz o'g'lining kelajagini o'ylab, qaytar dunyoda farzandidan qaytmasin deya, uni kechiradi. Solih ota uchun farzand iqbolidan ortiq baxt yo'qdir.

Xusrav va Sheruya munosabatlari esa juda ziddiyatli, Hurmuz va Xusravning mehr-oqibatli munosabatlariga teskari qilib tasvirlangan. Sheruya onasiga ham shafqat qilmaydigan darajada qahri qattiq farzand bo'lib voyaga yetadi. Xusrav uning mavhum kelajagidan qattiq xavotirga tushib, dono vazir Buzurgummidga xavotirlarini aytadi. Buzurgummid esa Xusravga shunday taskin beradi:

Yomon farzand kelurmi yaxshi shohdin?

Kelur yaxshi samar yaxshi butoqdin.

Asov ersa o'shal farzandi bebosh,

Zamona rom etar, sen ayla bardosh.

Yigitlik qoni gar qaynar urar jo'sh,

Yetuklik chog'i ul etgay faromush". [4,382]

Afsuski, yaxshi butoqning mevasiga ham ba'zan qurt tushadi. To'qqiz yoshidan o'g'ay onasi Shiringa oshiq bo'lgan Sheruya balog'at yoshiga yetganda ham jirkanch niyatidan qaytmaydi, Shiringa yetishish uchun otasini otashxonaga qamab, o'ldiradi.

Nega Humuzning tarbiyasini olgan solih otadan bunday yovuz farzand - padarkush dunyoga keldi? Buning javobi Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asarida berilgan. Xusrav Farhodni rashkdan o'ldirdi. Payg'ambarimizning nomasini g'ururga berilib yirtidi. *"Va o'z mulk va davlatiga qasd qildi va Hazrat mo'jizasi-dan mulkiga zavol donib, Sheruyaki aning o'g'li ma'mur bo'ldi. Farhodning begunoh qatli muqobilasida otasini qasos qildi"* [3,230].

Farzandning padarkushga aylanishiga, shubhasiz, ota sababchi bo'ladi. Xusrav yaxshi tarbiya ko'rgan, ota mehri quchoqida yarayab katta bo'lgan bo'lsa-da, o'zi munosib ota bo'la olmadi. Avvalo, farzandini chin dildan seva olmadi, buning sababi ham "Tarixi muluki Ajam"da berilgan: Xusravga munajjimlar *"Sening zavolning o'z*

avlodiningning iligida bo'lg'usidir" deganlari uchun o'n yettita o'g'lini bir hisorga solib, mahbus saqlab, ayollarni ularga yaqinlashtirmagan ekan [3,231]. Farzandiga tarbiya berish o'miga Shakar va Shirin ishi bilan band bo'ldi. To'qqiz yoshli bolaning ko'zidagi nafratni vaqtida ko'ra olmadi. Xusravning qonida yengiltaklik, kayf-safoga moyillik bo'lgani uchun (chaqaloqligida sut-u shakar-ga mayli baland bo'lganligi bejiz emas edi), ulg'aygach, taxt, muhabbat, farzand tarbiyasi masalalarida jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yadi. Xusravning asosiy dushmani o'z nafs edi.

Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida go'zal fazilatlar sohibi bo'lgan Xoqon va Farhod; zolim va xudbin ota-o'g'li Xusrav - Sheruya juftligiga aniq badiiy - ijtimoiy vazifalar yuklagan. Chin xoqoni va uning o'g'li Farhod obrazilari orqali komil ota-o'g'li munosabatlari temuriyozdalarga o'rnatilib ko'rsatib, Xusrav - Sheruya juftligi misolida ota-o'g'lining yovlashishi oila-ga, davlatga, xalqqa qanday ofatlar olib kelishi mumkinligidan ogohlantiradi.

Xoqon farzandi uchun nafaqat toj-taxtni, hatto, jonini ham berishga tayyor solih otadir. U otalik farzini o'g'liga go'zal ism qo'yishdan boshlaydi. Farzandining har tomonlama tarbiya olishiga katta e'tibor beradi. Dunyoviy, diniy va harbiy bilimlarni puxta o'zlashtirgan shahzoda to'rt qasr qurilishidan beri kelmay qolganida uning qiziqishlariga, san'atga oshnoligiga qarshi chiqmaydi. "Yigit kishiga qirq hunar oz" maqoliga amal qiladi. O'g'li mashaqqatli Yunon safariga otlanganida, toj-taxt va davlat ko'ziga ko'rinnay, ko'zining qo'u qorasiga hamrohlik qiladi. Farhod ajdaho, dev, sher, temir odamlar bilan olishganda ruhiy madad berib turadi. Xoqon o'g'li tarbiyasida quyidagi maqsadlarni ko'zlagan edi: 1) solih musulmon farzandni tarbiyalash; 2) ko'zining ochiqligida valiahdni davlatni boshqarish ishiga har tomonlama tayyorlash; 3) o'g'lini odil bo'lishga o'rgatish; 4) el maslahati bilan ish ko'rishga odatlantirish. Baxtiga, o'g'li o'yaganidan ham ming marta yaxshi bo'lib yetishdi. Sheruyaning asl maqsadi podshohlik taxtni otasidan to'rtlik bilan tortib olish bo'lgan bo'lsa, Farhod esa otasining taxtni egallash haqidagi taklifini tajriba o'ttirishga ijozat so'rash bilan ortga suradi. Navoiyning fikricha, solih farzand - dunyo hoy-u havaslaridan oson voz kecha oladigan, ko'zi to'q, qalbi ma'rifatga oshno insondir. Chin xoqoni va Mulkoroning sa'y-harakatlari tufayli Farhod ana shunday farzand bo'lib voyaga yetadi.

Navoiy ahil, oqibatli shoh va valiahd obrazlari orqali toj-taxt talashib yurgan Husayn Boyqaroning o'n to'rt o'g'li va ikki nabirasiga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi: otaga qarshi qilich ko'tarmasdan, uning tajribasini, bilimni o'rganishlari kerakligini ta'kidlaydi.

"Farhod va Shirin" dostonidagi Xusrav - xudbin, jo-hil podshoh. Uning butun qilmishi xalqi talab, boylik o'ttirishga qaratilgan. Navoiy ham, Xusravning Eron va Armanistonda xalqqa yetkazgan zulmini tasvirlashdan oldin, uning ota-bobolaridan so'z ochadi. Xusrav podshohi Kisorning nabirasi edi. Kisor o'lgach, uning o'lkasini o'g'li Hurmuz egallagan va yashnatgan. Hurmuz

ham o'lib ketgandan keyin, uning o'rni o'g'li Parvez o'rinbosar bo'ldi. Bu davlat unga yetmish otadan qolib kelayotganini u yaxshi bilardi. Bu o'tgan otalarning hammasi o'z farzandlariga mehribonlik bilan podshohlik taxtini topshirib ketganlar [2, 228].

Shahzoda Sheruya o'z johilligi, insofsizligi bilan otasidan qolishmaydi. *"Uchqun o'tga farzand bo'lganid, o'q uchi temirdan uzilib tushganiday, Xusravning ham o'g'li o'ziga o'xshash edi. U o'g'ildan otaning ta'bi xush emas edi. Otaning ham qiliqlari o'g'ilga yoqmas edi"*, - deb yozadi Navoiy [2, 281]. Xudbin, badxulq o'g'il Shiringa oshiqlik niqobi ostida otasini o'ldiradi: yovuz ota

yovuz o'g'ilning qo'lda halok bo'ladi. Bir vaqtlar Xusrav Farhodga zulm qilgan edi, davron uning boshiga o'zining qilichini soldi. U xalqning yalaridan qonlar oqizgan edi, o'zining qoni ham o'z jigarpasining qo'liga oqdi. Agar qotil gado bo'lsa ham, hukmdor bo'lsa ham, bari-bir, ishq shariatida "Qonga qondir" Xusrav va Sheruya qaytar dunyo qoidalarini unutib qo'yishgan edi.

Navoiyning Xusrav va Sheruya o'rtaqidagi fojiali nizoga katta e'tibor berishi bejiz emas. Bunday nizolar Navoiy yashagan davr uchun ham xos edi. Navoiy shoh va shahzodalar o'rtaqidagi nizolarni qoralaydi, ularni ahil bo'lishga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Navoiy Aliшер. Мукаммал асарлар тўплами: 20 томлик. Т. 8. Ҳамса: Фарҳод ва Ширин. –Т.: Фан, 1991, 554-6.
2. Navoiy Aliшер. Ҳамса. –Т.: Наврўз, 2019, 711-6.
3. Navoiy Aliшер. Мукаммал асарлар тўплами: 15 томлик. Т.14. Тарихи мулки Аҷам–Т.: Фан, 1967, 269-6.
4. Shayx Nizomiy Ganjaviy. Xusrav va Shirin. Jamol Kamol tarjimai-T., 2018, 435-6.
5. Низами Гяنجави. Хосров ва Ширин. Бақи, "Лидер ниярийлар", 2004, 392-сях.
6. Rahmanova N.A. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi o'n go'zal qiz obrazining genezisi /Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari / – Toshkent. – 2021. – 528 b.

Laylo XASANOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

NAVOIY LIRIKASIDA OBRAZNI IFODA ETISHDA RITM VA MAZMUN UYG'UNLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy lirikasida ritm va mazmunning o'zaro uyg'unligi masalasi yoritilgan. Ritm tushunchasi va uning asar mazmunini, lirikada ifoda etilgan kechinmalarni, obrazlar ifoda etgan mazmunni yoritishdagi o'imi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: Alisher Navoiy, ritm, aruz, obraz, ramali musammani mahzuf, Hazaji musammani solim, mutaqoribi musammani solim, mujtassi musammani mahbuni mahzuf.

Annotation: This article discusses the harmony of rhythm and content in the lyrics of Alisher Navoi. The concept of rhythm and its role in illuminating the content of the work, experiences expressed in lyrics, content expressed in images are discussed.

Key words: Alisher Navoi, rhythm, aruz, image, ramali musammani mahzuf, Hazaji musammani solim, mutakoribi musammani solim, mujtassi musammani mahbuni mahzuf.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о гармонии ритма и содержания в лирике Алишера Навои. Обсуждается понятие ритма и его роль в освещении содержания произведения, переживаний, выраженных в лирике, содержания, выраженного образами.

Ключевые слова: Алишер Навои, ритм, аруз, образ, рамали мусаммани махзуф, Хазажли мусаммани салим, мутақороби мусаммани салим, муҷтасси мусаммани маҳбуни махзуф.

Sharq mumtoz she'riyatida shakl va mazmun bir-birga chambarchas bog'liq tushuncha sifatida talqin etiladi. Bu adabiyotshunoslikda o'rganilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biridir.

So'z obrazga nisbatan shakl, obraz esa matnga nisbatan shakliy xususiyatni o'zidan mujassam etadi. Shunga ko'ra, Navoiy devonlarini o'rgananimizda, tadqiqot ob'ektimiz bo'lgan "it" obraziga doir bir qancha masalalar va uning yechimiga doir ishlar amalga oshirildi. Ushbu obraz istifoda etilgan she'rlarni tahlil etganimizda, bir o'rinda ruboiy va muxammas (Navoiy

o'z g'azaliga taxmis bog'lagan), qolgan barcha o'rindalarda g'azal tarkibida qo'llanganiga guvoh bo'lamiz. Agar obrazning mazmunini yoritishda har bir janring funktsiyasini hisobga olgan holda tahlilga tortsak, masala mohiyatiga yana-da teranroq kirib borgan bo'lamiz, nazarimizda. Obrazning anglatgan mazmunini, unga ortilgan yukning salmog'ini o'chashda matnning ritmik hamda qo'fiya bilan bog'liq jihatlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ritm tushunchasi hamda uning mazmun bilan munosabati xususida bir qancha tadqiqotlar qilingan.¹ Ritm tushunchasi (vazn, qo'fiya radif) lirik asarlardagi shoir